



**BUXORO DAVLAT  
PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI**

**ILMIY – METODIK JURNAL**

No. 2

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Hakimova Nargiza Supxonovna,*

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti (PhD)

*Qo'shshiyeva Dilnoza Sulaymon qizi,*

Boshlang'ich ta'lim yo'nlisi 3-bosqich talabasi

[Sulaymonovna\\_dilnoza.@gmail.com](mailto:Sulaymonovna_dilnoza.@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish haqida malumotlar keltirilgan vauni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari hamda samarali usullari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatuvchi interfaol metodlar va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, boshlang'ich sinf, interfaol metodlar, XXI asr ko'nikmalari, "Klaster", "Sinkveyn", muammoli ta'lim, mantiqiy tafakkur, texnologiya, darslik, yondashuv

## МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Доцент (кандидат наук) Бухарского государственного педагогического института

*Хакимова Нургиза Супхоновна,*

Студентка 3 курса отделения начального образования

*Ко'шшиева Дильноза Сулеймон кизи,*

[Sulaymonovna\\_dilnoza.@gmail.com](mailto:Sulaymonovna_dilnoza.@gmail.com)

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о формировании навыков критического мышления у учащихся начальной школы и освещены педагогические и психологические основы и эффективные методы их развития. На основе требований современного образования описаны интерактивные методы и практические рекомендации, обучающие учащихся самостоятельному мышлению, анализу информации и принятию правильных решений в проблемных ситуациях.

**Ключевые слова:** критическое мышление, начальная школа, интерактивные методы, навыки XXI века, «Клстер», «Синквейн», проблемно-ориентированное обучение, логическое мышление, технология, учебник, подход

## METHODS OF DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS IN PRIMARY GRADE STUDENTS

*Hakimova Nargiza Supkhonovna,*

Associate Professor (PhD) of the Bukhara State Pedagogical Institute

*Ko'shshiyeva Dilnoza Sulaymon kizi,*

3rd year student of the primary education department

[Sulaymonovna\\_dilnoza.@gmail.com](mailto:Sulaymonovna_dilnoza.@gmail.com)

**Annotation.** This article provides information on the formation of critical thinking skills in primary school students and highlights the pedagogical and psychological foundations and effective methods of its development. Based on the requirements of modern education, interactive methods and practical recommendations are described that teach students to think independently, analyze information, and make the right decisions in problem situations.

**Keywords:** critical thinking, primary school, interactive methods, 21st century skills, "Cluster", "Sinquain", problem-based learning, logical thinking, technology, textbook, approach

## KIRISH

Bugungi tezkor axborot asrida ta'lim tizimining oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — shunchaki tayyor bilimlarni yodlatish emas, balki o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Tanqidiy fikrlash — bu ma'lumotlarni ko'r-ko'rona qabul qilmasdan, ularni tahlil qilish, solishtirish, sabab-oqibat aloqalarini topish va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Bu ko'nikmani shakllantirishni aynan **boshlang'ich sinflardan (1-4 sinflar)** boshlash lozim.

Chunki bu davrda bolaning tafakkuri, dunyoqarashi va intellektual salohiyati faol rivojlanish bosqichida bo'ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!” mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko‘rgazmasida: “XXI asr kishisi uchun eng zarur bo‘lgan “4K” ko‘nikmasi bo‘yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko‘nikmalar, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish” masalalariga alohida e‘tibor qaratish kerakligi va “...darsliklar quruq ma’lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o‘qish-yozishni o‘rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganishi” zarurligini ta’kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o‘qituvchilar majburiyatlari haqida “...bugun darsliklar o‘zgaryapti. Shunga yarasha o‘qituvchilar ham o‘zgarishi kerak”, - degan fikrlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy-metodik va ilmiy-metodik ta’minotini mustahkamlash, ularni o‘qitishda didaktik imkoniyatlarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy qilishni yanada kuchaytiradi. Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi kun uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu masalalar mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. “Tanqidiy fikrlash” tushunchasi XX asr o‘rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan. Birinchilardan bo‘lib tanqidiy fikrlash atamasi K.Popper tomonidan ishlatilgan. Unga ko‘ra har bir tirik organizm muammolarni “hal qiluvchi” vazifasini bajargan. Atrofdagi ma’lumotlar dunyo tirik organizmning ma’nosini tasdiqlash yoki rad etish sifatida qaraladi bu hodisani oldindan beradi. Bunday vaziyatda tanqidiy fikrlash – haqiqatni izlash va xatoni bartaraf etish usuli sifatida ishlaydi. Tanqidiy fikrlash - fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarini tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu kontsepsiya murakkab va turli xil ta’riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, holis tahlil va faktlarini tekshirish

#### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Tanqidiy fikrlash masalasi bo‘yicha ish olib borgan xorijiy va MDH davlatlaridan V.S.Bibler, B.Burshteyn, A.V.Brushlinskiy, M.Vertgeymer, D.V.Vil’keev, Dj. Gilford, N.G.Dayri, A.Z.Zak, G.I.Ibragimov, A.A.Ivin, Z.I.Kalmikova, F.Klike, I.Ya.Lerner, A.N.Luk, A.M.Matyushkin, M.IMaxmutov, S.O.Rubinsheyn, B.M.Teplov, O.K.Tixomirov, I.Frolov, V.S.Shubinskiy E.D.Bono, J.Daniya, M.Lipman, D.Halpern, D.Klouzlar tadqiq etgan. A.E.Petrovlarning so‘zlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash refleksiv xususiyatga ega bo‘lib, bunda inson o‘z tafakkurini va uning to‘g‘riligini o‘rganadi. A.Veretennikova tanqidiy fikrlashni belgilashda, uni baholashni shakllantirishga qaratilgan ruhiy holatlar, xususiyatlar va jarayonlar tizimi sifatida taqdim qiladi. Rivojlanuvchi ta’lim konsyepsiyasiga tayangan holda A.V.Korjuyev, V.A.Popkovlar ta’lim berishni faqat ma’lumot olishga tenglashtirish mumkin emas, degan fikrni bildiradi. Tanqidiy fikrlash bu — o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘zini- o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini- o‘zi nazorat qiladigan va o‘zini- o‘zi to‘g‘irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qa’tiy me’yorlariga rozi bo‘lish va ularni hushyorlik bilan qo’llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizmni yengib o‘tishni talab qiladi. Egocentrizm lotincha men va markaz degan ma’noni anglatadi. Shaxsning o‘z qiziqish doirasiga bog‘lanib qolishi, boshqa odamlarga narsalarga nisbatan o‘zining dastlabki bilishiga oid qarashi yoki fikrini o‘zgartira olmasligi, hatto o‘z tajribasiga qarama-qarshi axborotlarga moslasha bilmasligidan iborat hislati. Egocentrizm negizida insonning o‘z nuqtai nazariga qarama- qarshi qarashlar mavjud bo‘lishi mumkinligini tan olmasligi, tushuna bilmasligi hodisasi yotadi. Shaxsda o‘ziga haddan ziyod ishonch ustuvorligi tufayli u boshqalarning ruhiy holatlari, baholash tizimini o‘zini bilan aynan bir xil deb tasavvur qiladi . Bu muammolarni hal qilish uchun ta’lim metodikasini takomillashtirish, o‘qituvchilarning malakasini oshiradi.

#### **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogika, psixologiya va didaktika fanlarida shakllangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi, tanqidiy fikrlash nazariyasi, interfaol o‘qitish texnologiyalari hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqotda o‘quvchi shaxsini faol, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi subyekt sifatida shakllantirish g‘oyasi asosiy yo‘nalish sifatida tanlangan. Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olingan:

- tanqidiy fikrlash tushunchasining ilmiy-nazariy mohiyatini tahlil qilish;

- boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga oid ilg'or tajriba va ilmiy yondashuvlarni o'rganish;
- o'qish darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlarni aniqlash;
- o'qituvchi faoliyatida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlash;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqotning davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil – tanqidiy fikrlash va boshlang'ich ta'limga oid ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish;

2. Tizimli yondashuv – o'qish darslarini tashkil etishda tanqidiy fikrlashni o'quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish;

3. Pedagogik kuzatuv – boshlang'ich sinf dars jarayonida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini kuzatish;

4. Suhbat va so'rovnomma – o'qituvchilar va o'quvchilarning fikrlarini o'rganish orqali mavjud muammolarni aniqlash; Agar ma'lumot tanqidiy fikrlash mezonlarga mos bo'lmasa, u o'z tarbiyaviy ma'nosini yo'qotadi. Ular qo'yidagi mezonlarda amalga oshiriladi. Shuningdek, N.I.Merzshkinaning dissertatsiyasida ba'zi yomon hodisalar avvaliga “yaxshi” deb qabul qilinadi, yaxshi hodisalarga esa avvaliga “yomon” deb qaraladi. Amerikalik olim J.Dyuining fikricha: «O'quvchilar muayyan muommo bilan shug'ullana boshlasalar gina, ularda tanqidiy fikrlash paydo boladi. Shu sababli, o'quv jarayonining boshlang'ish nuqtasi hisoplanagan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bulgan eng muhim savol bu hodisa qanday muommoni bujudga keltirishni anglatadigan savoldir. Faqat gina muayan muommo bilan kurashib, o'quvshi haqiqattan ham fikrlaydi». Tanqidiy fikrlash asosida o'quvchilarda baholash, bilim, ko'nikma va malakalar rivojlantiriladi. Tanqidiy usullarni ko'rib chiqishda quyidagilarni alohida takidlash mumkin:

√ O'quvchining o'qituvchi va hamkorlar bilan konstruktiv hamkorlar tuzishga intilishi;

√ O'zgaralar fikriga tayanmagan holda o'z fikrini bayon eta olishi. Yani ma'lumotlarni bilishga intilishi;

√ Qo'yilgan vazifalarni no an'anaviy usullar bilan yechishi;

√ Etkazilayotgan ma'lumotlarni har tomonlama o'rganish, u yoki bu hodisalarni sabablarini aniqlash.

#### **MUHOKAMA**

Tanqidiy fikrlash – bu shaxsning o'z bilim va tajribasini tahlil qilib, dalillarga asoslangan holda mustaqil xulosa chiqarish, mavjud g'oyalarni baholash va yangi fikrlarni ilgari surish qobiliyatidir. Ilmiy manbalarda tanqidiy fikrlash “analitik tafakkur”, “mantiqiy fikrlash”, “refleksiv fikrlash” kabi tushunchalar bilan ham bog'lanadi. Biroq tanqidiy fikrlash ulardan farqli ravishda, faqat tahlil yoki baholash emas, balki fikrni asoslash, dalillash va o'z nuqtai nazarini himoya qilishni ham o'z ichiga oladi. Psixolog olimlar fikricha, tanqidiy fikrlashning shakllanishi bolaning tafakkur, diqqat, xotira va nutq faoliyati rivoji bilan uzviy bog'liq. Shu bois, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayoni asta-sekinlik bilan, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchining o'qilgan matnga nisbatan mustaqil savollar qo'yish, muammolarni aniqlash, sabab va oqibatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni psixologik va pedagogik nazariyalarga asoslanadi. J.Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda bolaning fikrlash darajasini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Piagetning fikricha, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo'lib, ular hodisalarni aniq misollar orqali tahlil qilishga qodir [4]. Shu bois, o'qituvchi mavzularni o'quvchilarga yaqin va tushunarli misollar bilan bog'lab berishi zarur. Bundan tashqari, L.Vigotskiyning ijtimoiy o'rganish nazariyasi bolalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Vigotskiyning fikricha, bolaning fikrlash qobiliyati ijtimoiy muhit va o'qituvchi bilan muloqot orqali rivojlanadi [6]. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf darslarida guruh ishlari, muammoli vazifalar, muhokamalar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati samarali rivojlantiriladi. Boshlang'ich sinf o'qish darslari o'quvchilarning tafakkurini, nutqini, tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirish uchun eng samarali fanlardan biridir. Chunki, o'qish darslarida o'quvchi badiiy, axloqiy, tarixiy va ma'naviy

mazmundagi matnlar bilan ishlaydi, voqealarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi, qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qiladi. Dars jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratishi lozim: • darsda erkin fikr almashish muhiti yaratish; • har bir o'quvchining fikrini qadrlash, e'tibor bilan tinglash; • o'quvchilarga ochiq va tahliliy savollar berish; • "nima uchun?", "qanday?", "agar shunday bo'lsa, nima yuz beradi?" kabi savollar orqali tafakkurni faollashtirish; • o'quvchilarni fikrini dalillashga, asoslab aytishga o'rgatish. O'qish darslarida interfaol metodlardan foydalanish tanqidiy fikrlashni shakllantirishda eng muhim vositalardan biridir. Masalan:

- "Aqliy hujum" metodi o'quvchilarning ijodiy va tezkor fikrlashini rag'batlantiradi;
- "Insert" texnologiyasi matnni o'qish jarayonida o'quvchining fikrini kuzatish va tahlil qilishga yordam beradi;

- "Venn diagrammasi" qahramonlar yoki voqealar o'rtasidagi farq va o'xshashlikni aniqlash orqali tahliliy fikrlashni rivojlantiradi;

Boshlang'ich sinf darslarida (Ona tili va o'qish savodxonligi, Matematika, Tabiiy fanlar) tanqidiy fikrlashni oshirish uchun quyidagi interfaol usullardan foydalanish yuqori samara beradi:

### 1. "Oltita o'ylash qolgog'i" (Edward de Bono) metodi

O'quvchilarga rangli (oq, qizil, qora, sariq, yashil, ko'k) bosh kiyimlar (yoki qog'ozli ramzlar) beriladi. Har bir rang ma'lum bir fikrlash yo'nalishini bildiradi:

- **Oq kalpak:** Faqat faktlar va raqamlarni aytadi.
- **Qizil kalpak:** Tuyg'u va emotsiyalarni ifodalaydi.
- **Qora kalpak:** Kamchilik va xavflarni topadi.
- **Sariq kalpak:** Ijobiy tomonlarni va foydasini izlaydi.

Bu metod o'quvchilarni biror voqea yoki matnga har tomonlama, xolis baho berishga o'rgatadi.

### 2. "Sinkveyn" (Besh qatorli she'r) metodi

Bu usul o'quvchidan ma'lumotni qisqa va lo'nda umumlashtirishni talab qiladi.

- **1-qator:** Mavzu (1 ta ot).
- **2-qator:** Tavsif (2 ta sifat).
- **3-qator:** Harakat (3 ta fe'l).
- **4-qator:** Mavzuga oid his-tuyg'u (4 ta so'zdan iborat birikma).
- **5-qator:** Mavzuning mohiyati (1 ta sinonim so'z).

### 3. "To'g'ri yoki Noto'g'ri" o'yini

O'qituvchi o'tilgan mavzu yuzasidan ham haqiqatga mos, ham ataylab xato kiritilgan jummalarni o'qiydi. O'quvchilar esa qaysi jumla xato ekanligini topib, o'z fikrini isbotlab berishlari kerak. Bu metod bolani diqqatli bo'lishga va tahlil qilishga majbur qiladi.

### NATIJA

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- **Mustaqillik:** Bola o'z fikrini qo'rqmasdan bayon etishni va uni himoya qilishni o'rganadi.
- **Selektivlik (Saralash):** To'g'ri va noto'g'ri axborotni farqlay olish ko'nikmasi shakllanadi.
- **Ijodkorlik:** Muammolarga standart bo'lmagan, yangicha yechimlar topishga intiladi.

Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash, savol tuzish, xulosa chiqarish va baholash faoliyatlarini muntazam rag'batlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'qituvchi o'qish darslarida quyidagi metodik yondashuvlarni qo'llashi mumkin: • o'quvchini fikrlashga undaydigan muammoli savollar berish (Agar voqea boshqacha tugasa, nima bo'lar edi?); • fikrlarni baholash o'quvchidan matnda keltirilgan fikr yoki qahramon harakatiga o'z munosabatini bildirishni so'rash; • dalillash va asoslash orqali o'quvchi o'z fikrini dalillar bilan mustahkamlashni o'rganadi; • guruhli munozaralar o'quvchilarda fikr almashish, tinglash va o'z nuqtai nazarini himoya qilish madaniyatini rivojlantiradi. Bunday yondashuvlar natijasida o'quvchilarda quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi: o'qilgan matnga chuqur yondashish ko'nikmasi shakllanadi, mustaqil xulosa chiqarish va tahlil qilish qobiliyati ortadi, o'z fikrini dalillar bilan asoslash odat tusiga kiradi, muloqot madaniyati va nutq boyligi rivojlanadi, ijodkorlik, faollik va o'z fikriga ishonch kuchayadi. Demak, boshlang'ich sinf o'qish darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o'quvchining nafaqat o'qish ko'nikmasini emas, balki shaxs sifatida mustaqil qaror qabul qilish, mantiqan o'ylash va hayotda to'g'ri yo'l tanlash salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Sharoit yaratishning ahamiyati: Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi tasodifiy rivojlanmaydi. Buning uchun ochiq muhit, erkin fikr bildirishga imkon

beruvchi o‘quv muhit, o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi va bolalarni “xato qilishdan qo‘rqmaslikka” o‘rgatish zarur. O‘qituvchi o‘quvchining har qanday fikrini qadrlashi, unga e‘tibor bilan quloq solishi tanqidiy fikrlashni shakllantirishda motivatsion omil bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy natijalar: Ilg‘or pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar matni yaxshiroq tahlil qiladi, mantiqiy fikrlaydi, darsda faol ishtirok etadi, o‘z fikrini asosli tarzda bayon eta oladi va ijodkorlik darajasi yuqori bo‘ladi. Boshlang‘ich sinfda tanqidiy fikrlashni shakllantirish bu faqat o‘qituvchining pedagogik mahorati emas, balki butun ta’lim tizimining zamonaviy talabi hisoblanadi. Darslarda savol-javob texnologiyasi, muammoli o‘qitish, mantiqiy mashqlar va ochiq muloqotlar orqali bolalarni fikr yuritishga undash ularning bilim olish jarayonini faollashtiradi. Bu esa kelajakda mustaqil fikrlaydigan, ongli qaror qabul qiladigan, ijtimoiy faol shaxslar yetishib chiqishiga zamin yaratadi.

**Savol-javob texnologiyasi.** Dars davomida ochiq, tahliliy savollar berish orqali bolalarni faqat tayyor javob emas, o‘z fikrini ilgari surishga undash mumkin. Masalan, “Nega senga bu personaj yoqdi?”, “Bu voqeada boshqa qanday yechim bo‘lishi mumkin edi?” kabi savollar

**Muammoli o‘qitish.** O‘quvchilarga oddiy, lekin fikrlashga undovchi muammoli vaziyatlar beriladi. Masalan: “Agar sen bunday holatda bo‘lsang, nima qilarding?”, “Bu masalani yechishning boshqa yo‘li bormi?” Bu usul bolalarda qaror qabul qilish, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini oshiradi

**Mantiqiy o‘yin va mashqlar.** “Topishmoq-top”, “Mantiqiy bog‘lanishni aniqlash”, “Ketma-ketlikni top” kabi mashqlar o‘quvchilarning tafakkur doirasini kengaytiradi, ular mantiqan fikrlashni o‘rganadi.

### 1-rasm. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi samarali usullari

#### XULOSA

Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat o‘qish savodxonligini oshiradi, balki o‘quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va hayotiy muammolarga ijodiy yondashish salohiyatini shakllantiradi. Bu esa, ularning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishi va ijtimoiy faol shaxs sifatida kamol topishiga mustahkam poydevor yaratadi. Tanqidiy fikrlash asosida o‘quvchining o‘qilgan matnga nisbatan ongli munosabat bildirish, voqealarni tahlil qilish, dalillar keltirish, mustaqil qaror qabul qilish va xulosa chiqarish qobiliyati shakllantiriladi. Ya’ni, fikrlashning mantiqiyligi va tizimliliigi, dalil asosida fikr bildirish, tahlil qilish va baholash, ijodiy yondashuv kabi sifatlar rivojlanadi. Bu jarayon samarali kechishi uchun o‘qituvchi nafaqat matn mazmunini o‘rgatishi, balki o‘quvchini o‘ylashga, tahlil qilishga, solishtirishga, savollar berishga va ularning javobini topishga yo‘naltirishi kerak. Demak, o‘qish darslari shunchaki bilim berish vositasi emas, balki fikrlash madaniyatini shakllantiruvchi muhim pedagogik maydondir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish — bugungi kun ta’limining eng muhim talabidir. Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol o‘yinlardan muntazam foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini o‘stiradi, ularni mustaqil hayotga tayyorlaydi va kelajakda raqobatbardosh shaxs bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mavlonova R.X. Tanqidiy fikrlash metodlari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. G‘ulomov S.S., Mahmudova M.N. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. –Toshkent: O‘zMU, 2021.
3. Abdullaeva D.M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. –Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
4. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. –Moskva: Prosvetshenie, 2004.

5. Paul, R., Elder, L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – Pearson, 2014.
6. OECD. Fostering Students' Creative and Critical Thinking. – OECD Publishing, 2019.
7. Woolfolk, A. Educational Psychology. – Pearson Education, 2013.
- . Brookhart, S.M. How to Assess Higher-Order Thinking Skills. – ASCD, 2010.

## MUNDARIJA

### PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

<b>Kurbanova Nasiba Usmonovna</b> , The impact of artificial intelligence on the development of reading culture: A theoretical and empirical analysis	4
<b>Mahmudova Zulfizar Eson Qizi</b> , Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	9
<b>Sultonova Gulasal Shodmonovna</b> , Xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati	13
<b>Azimova Dilnoza Orifovna</b> , Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani kasbga yo'naltirib o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limning samarali jihatlari	22
<b>Rajabova Gulchexra Salomovna, Muzaffarova Dilshoda Mehriddin qizi</b> , Elektron kutubxona tushunchasi va uning axborot tizimidagi o'rni	23
<b>Tosheva N.T, Muhammadova M.F</b> , Zamonaviy ta'lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg'unligi va taraqqiyot tendensiyalari	26
<b>Raxmatullayeva Feruzabonu, Akramova Maftunabonu</b> , Musiqa ta'limida xor ijrochiligini tashkil etishning maktab sharoitiga moslashtirilgan amaliy tizimi	31
<b>Рузиева Наргиза Омонжоновна</b> , Педагогические идеи и реформы Мирзо Улугбека в эпоху Темуридов	36
<b>Nazarova Aziza Sohib qizi</b> , Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat bilan tanishtirishning zamonaviy metodlari	39
<b>Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi</b> , Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanishi va zamonaviy pedagogik talqinlari	43
<b>Nadirxanova Nilufar Alesherovna</b> , Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	49
<b>Umedov Shaxzod</b> , Tasviriy san'at darslarida raqamli texnologiyadan foydalanish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	54
<b>Omonov Qavmiddin Karimovich</b> , Muhandislik grafikasini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish muammolari	57
<b>Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi</b> , Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	63
<b>Aslonova Emma Sergeyevna</b> , Pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	68
<b>Barnoyeva Sevara Uchqun qizi</b> , Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish: Ta'lim transformatsiyasi sharoitidagi muammo va yechimlar	73
<b>Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna</b> , Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	78
<b>Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich</b> , Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoe" asarida tarbiya, ilm va inson kamoloti masalalari	83
<b>Choriyeva Hilola Avaz qizi</b> , Oila va maktab hamkorligida nutqida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish mexanizmlari	87
<b>D.I.Normatova</b> , Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni	94
<b>Toshmatov Bobur Alisher o'g'li</b> , O'smir yoshdagi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari	98
<b>Egamberdiyev Murod Farxod o'g'li</b> , Xorijiy va milliy tajribalar asosida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inklyuziv ta'lim modelini shakllantirish	103
<b>Egamova Gulnoza Istam qizi</b> , Talabalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirishning mavjud ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari	111
<b>Hakimova Nargiza Supxonovna, Qo'shshiyeva Dilnoza Sulaymon qizi</b> , Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarni rivojlantirish usullari	117
<b>Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi</b> , Nozmunchoqning tarixi va madaniy ahamiyati	123
<b>Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna</b> , Zamonaviy tasviriy san'at ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	129